

O'RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA'LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O'TKAZISH UCHUN QO'LD A YOYLI PAYVANDLASH FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta'lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Qo'lda yoyli payvandlash talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo'llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me'yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko'nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me'yoriy asoslar

1.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi **"Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Qo'lda yoyli payvandlash

- 1 Birikma hosil qilish;
2. Payvand birikmalari;
3. Payvandlash jihozlari.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1	Birikma hosil qilish	Birikma hosil qilish bo'limida kimyoviy va fizik jarayonlarni samarali boshqarish maqsadida turli moddalarning o'zaro reaksiyalari, birikma hosil bo'lish prinsiplari va sharoitlarini o'rganish, atom va molekula darajasidagi strukturalarni tahlil qilish, reaktivlar va mahsulotlar o'rtasidagi energiya almashinuvini hisobga olgan holda birikma hosil qilish jarayonlarini simulyatsiya qilish, laboratoriya va sanoat sharoitida amaliyotda xavfsizlik va me'yoriy talablarni inobatga olgan holda ko'nikmalarni rivojlantirish, innovatsion kimyoviy va texnologik usullardan foydalanish kompetensiyalarini shakllantirish, birikma hosil qilish jarayonlarini samarali, barqaror va xavfsiz tashkil etish uchun zarur nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish lozim.	17.5 %	7 ta
2	Payvand birikmalari	Payvand birikmalari bo'limida metall konstruksiyalarni yaratish va ulash jarayonlarini samarali tashkil etish maqsadida turli payvandlash usullari (gaz, elektr, TIG, MIG va boshqalar), payvand birikmalari turlari, ishlash prinsiplari va texnologiyalarini o'rganish, metallarning qotishmalari va qalinliklarini hisobga olgan holda payvand birikmalarini loyihalash va amalga oshirish, payvandlash jarayonida xavfsizlik va sifat nazoratini ta'minlash, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish, innovatsion texnologik va avtomatlashtirilgan usullardan foydalanish kompetensiyalarini shakllantirish, payvand birikmalarining barqaror, samarali va xavfsiz ishlashini ta'minlash uchun zarur nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish lozim.	17.5 %	7 ta
3	Payvandlash jihozlari	Payvandlash jihozlari bo'limida metall konstruksiyalarni ulash jarayonlarini samarali tashkil etish maqsadida turli payvandlash jihozlari (gaz, elektr, TIG, MIG va boshqa payvandlash uskunolari) konstruksiyasi, ishlash prinsiplari va texnologiyalarini o'rganish, jihozlarni sozlash, boshqarish va texnik xizmat ko'rsatish amaliyotini o'zlashtirish, xavfsizlik va me'yoriy talablarni hisobga olgan holda ishlash ko'nikmalarini	65 %	26 ta

		rivojlantirish, innovatsion texnologik va avtomatlashtirilgan payvandlash uskunalaridan foydalanish kompetensiyalarini shakllantirish, payvandlash jarayonlarining barqaror, samarali va xavfsiz ishlashini ta'minlash uchun zarur nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish lozim.		
--	--	---	--	--

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarni topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezoni va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha 15 % vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Dadaxonov. Elektr-gaz payvandlash ishlari asoslari;,T “Davr nashriyoti” MChJ 2017-yil
2. Dadaxonov. Elektr-gaz payvandlash ishlari asoslari;,T “Davr nashriyoti” MChJ 2013-yil
3. Болховитинов Н.Ф. Металловедение и термическая обработка. «Машиностроение», Москва, 1965 г.
4. Долматовский Т.А. Справочник технолога по обработке резанием. Машгиз, 1962 г.
- 5.Дубинин М.П. и др. Технология металлов. «Высшая школа», Москва, 1964 г.
- 6.Далский А.М. Технология конструкционных материалов. Машст, 1990 г.
7. Mirboboyev V.A. Konstruktion materiallar texnologiyasi. T.: «O'qituvchi», 1977-y. va 1991-y.